AXMEDOV Yunusjon,

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o‘qituvchisi, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy makatabi mustaqil tadqiqotchisi
akhmedov.yunusjon2301@gmail.com

MILLIY VA ETNIK NIZOLARNING OLDINI OLISHDA SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA FUNKSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФУНКЦИЙ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ЭТНИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ

THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE USE OF POLITICAL COMMUNICATION FUNCTIONS IN PREVENTING NATIONAL AND ETHNIC CONFLICTS

Annotatsiya. *Insoniyat tarixida milliy va etnik nizolar siyosiy konfliktlarning eng xavflisi sifatida namoyon bo‘lib keladi. Ularning oqibatida davlatlarning hududiy yaxlitligiga jiddiy zarba berilgan, mamlakatlar parchalangan, milliy va etnik birliklar uzoq davom etgan turli darajadagi ziddiyatlarga kirishgan. Muayyan g‘oyalarni targ‘ib qilish, fuqarolarga hissiy ta’sir o‘tkazish orqali ularni qarashlarini o’zgartirish, turli siyosiy kuchlar o’rtasida muloqot muhitini yaratishni maqsad qilgan siyosiy kommunikatsiya va uning funksiyalaridan polietnik mamlakatlarda samarali foydalanish davlatlarning nafaqat siyosiy barqarorligiga, balki ularning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga ham kafolat bo‘ladi. Chunki siyosiy kommunikatsiyaning asosiy vazifasi siyosiy hokimiyat uchun kurash bo‘lgani holda turli siyosiy kuchlar undan samarali foydalanishni siyosiy maqsadlarga erishishning asosiy vositasi sifatida qarab keladilar. Polietnik mamlakatlar qatoriga kiradigan O‘zbekiston uchun ham siyosiy kommunikatsiyaning funksiyalaridan samarali foydalanish uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligini saqlashda, fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy kommunikatsiya, milliy va etnik nizolar, polietnik mamlakatlar, kognitiv funksiya, kommunikativ funksiya, rag‘batlantiruvchi funksiya, hissiy funksiya, metalingvistik funksiya, fatik funksiya, estetik funksiya.*

Аннотация. *В истории человечества национальные и этнические конфликты выступают как опаснейшие политические разногласия. В результате таких конфликтов серьезно пострадала территориальная целостность государств, некоторые из них распались, а национальные и этнические группы оказались втянутыми в долговременные конфликты различного уровня. Политическая коммуникация, функция которой ориентирована на пропаганду определенных идей, эмоциональное воздействие на граждан страны и стимулирование их к политическим действиям, становится объектом использования различными политическими силами. Эффективное использование политической коммуникации и ее функций в полиэтнических странах, направленное на продвижение определенных идей, изменение взглядов путем эмоционального воздействия на граждан, создание атмосферы диалога между различными политическими силами, способствует не только политической стабильности государств, но и также будет гарантировать их социально-политическое развитие. Для Узбекистана, являющегося одной из полиэтнических стран, эффективное использование функций политической коммуникации имеет большое значение в обеспечении национальной безопасности, территориальной целостности, а также в поддержании социальной и политической стабильности среди граждан.*

Ключевые слова: *политическая коммуникация, национально-этнические конфликты, полиэтнические страны, когнитивная функция, коммуникативная функция, мотивационная функция, эмоциональная функция, метаязыковая функция, фатическая функция, эстетическая функция.*

ISSN 2181-9572

Abstract. *Throughout human history, national and ethnic conflicts have emerged as some of the most perilous forms of political conflict. These conflicts have severely damaged the territorial integrity of nations, leading to fragmentation and enduring disputes among national and ethnic groups at various levels. Effective use of political communication and its functions in polyethnic countries, aimed at promoting certain ideas, changing their views by having an emotional impact on citizens, creating an atmosphere of dialogue between different political forces, contributes not only to the political stability of states, but also their socio-political development will also be guaranteed. For Uzbekistan, a multi-ethnic country, effectively harnessing the functions of political communication is essential for maintaining national security, territorial integrity, and ensuring socio-political stability among its citizens.*

Keywords: *political communication, national and ethnic conflicts, multi-ethnic countries, cognitive function, communicative function, stimulating function, emotional function, metalinguistic function, phatic function, aesthetic function.*

KIRISH

Milliy va etnik nizolarni xavflilik darajasidan kelib chiqib ularning sabablarini o‘rganish, oldini olish, faollik darajasini pasaytirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar beradigan tavsiyalar hamma vaqt ham kutilgan ijobiy natijalarni beravermasligi mumkin. Chunki har bir milliy va etnik ziddiyat o‘z xarakteri, maqsadi, harakatlantiruvchi kuchlari bo‘yicha boshqasidan farq qiladi. Shuning uchun milliy va etnik ziddiyatlarni oldini olish bo‘yicha taklif etiladigan vositalarning barchasi muayyan darajada polietnik davlatlarda dolzarb sanaladi, ularni o‘rganish va hayotga tatbiq etish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Polietnik davlatlar uchun milliy va etnik ziddiyatlarning oldini olishda siyosiy kommunikatsiyaning funksiyalaridan samarali foydalanish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki siyosiy kommunikatsiya polietnik mamlakatlarda milliy va etnik ziddiyatlar subyektlarining maqsadlarini aniqlash, ularni amalga oshirishda davlat siyosiy yaxlitligini saqlab qolish, siyosiy elitaga ziddiyatlarni keltirib chiqarish yoki avj oldirish bilan bog‘liq jihatlarini oldindan aniqlashda katta yordam beradi. Kommunikatsiya mavjud makonda muloqot yuzaga chiqadi, muloqot esa etnik va milliy ziddiyatlarga nisbatan siyosiy qarorlarni qabul qilishda to‘g‘ri qadamlarni tashlashning asosiy vositalaridan biri sanaladi [10:11]. Siyosiy kommuniktasiyaning funksiyalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishni polietnik mamlakatlardagi milliy barqarorlikni saqlashdagi ahamiyatini turli mamlakatlardagi siyosiy jarayonlarda ko‘rish mumkin. Polietnik O‘zbekiston uchun ham siyosiy kommunikatsiyaning funksiyalaridan maqsadli foydalanish milliy barqarorlikni yanada mustahkamlashning garoviga aylanishiga shubha yo‘q.

ASOSIY QISM

Amerikalik lingvist Roman Yakobson tilning oltita funksiyasini belgilab beradi. Uning til funksiyasini belgilash bilan bog‘liq tavsiyalarini nutq, muloqot, jumladan siyosiy kommunikatsiyaga ham taalluqli jihatlari borligiga e’tibor qaratish lozim. Yakobson til funksiyalarini: kognitiv, kommunikativ, rag‘batlantiruvchi, hissiy, metalingvistik, fatik va estetik tavsifini ilgari suradi [5:1]. Siyosiy kommunikatsiya jarayonida tilning yuqorida keltirgan funksiyalari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Milliy va etnik ziddiyatlarni oldini olishda esa tilning funksiyalarini namoyon bo‘lish xususiyatlaridan samarali foydalanish mumkinligiga ilmiy asoslar mavjud.

Dastlab siyosiy kommunikatsiyaning kognitiv funksiyasiga e’tibor qaratamiz. Inson tasavvurida voqe’lik avvalo alohida ma’lumotlar timsolida, keyinchalik dunyoning umumiy tasviri guruhiy ko‘rinishda namoyon bo‘la boshlaydi. Tilning tafakkur bilan uzviy aloqasini inobatga oladigan bo‘lsak, u fikrlarni yetkazishning asosiy vositasi hisoblanadi. Inson til orqali bayon etilgan ma’lumotlarni eshitish va qabul qilish orqali tasavvurlar olami shakllanadi. Siyosiy kommunikatsiyada “fashistlar”, “ekstremistlar”, “demokratlar”, “liberallar” kabi kategoriyalarni qo‘llash siyosiy reallikni tushuntirishning vositasiga aylangan [7:65].

Polietnik mamlakatlarda hukmron siyosiy elita etnomilliy ziddiyatlar faol fazaga kirishganda matbuotda markazdan qochuvchi kuchlarga nisbatan kamsituvchi so‘z hamda iboralarni ishlatishga urinishadi. Ommaviy axborot vositalarida ham bu so‘zlarning yangrashi milliy ziddiyat kelib chiqqan joyda kamsonli milliy muxtoriyat, yoki mustaqillikka intiluvchi kuchlarga nisbatan yashirin, gohida ochiq nafratni yuzaga keltirib chiqaradi. Mustaqillik yoki muxtoriyat talab qiluvchi kam sonli millat vakillarida esa qarama-qarshi tomonga nisbatan nafrat ruhini yanada oshishiga olib keladi. Bunday sharoitda siyosiy kommunikatsiyaning kognitiv funksiyasidan to‘g‘ri foydalanish kerak. Imkoni boricha umumiy norozilikka sabab bo‘luvchi terminlar va iboralardan uzoqlashish lozim. Masalan, 1990-yillarda Rossiya Federatsiyasining Chechenistоn Respublikasida separatistik kuchlarning federal harbiy kuchlar bilan olib borgan toq’nashuvlarini Rossiya matbuoti turlicha yoritgan. Qator markaziy gazeta va obro‘li telekanallar esa Chechenistondagi voqealarni yoritishda “chechen banditlari”, “chechen jangarilari”, “qurollangan jangarilar” atamasini qo‘llashga urg‘u berishgan. Natijada siyosiy axborot maydonida muayyan millatga nisbatan norozi kayfiyat uyg‘ongan. Qarama-qarshi tomonda esa bunday axborotlardan keyin norozilik yanada ortgan bo‘lishi tabiiy. Bunday holatni ayni kunlarda Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi siyosiy nizoda ham kuzatish mumkin [4:2].

Kommunikativ funksiya ko‘pincha axborot oluvchining ongida mavjud siyosiy manzarani o‘zgartirishga qaratilgan informatsiyani yetkazishga maqsad qilingan bo‘ladi. Bunday informatsiyalar jamiyat siyosiy hayoti, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat, sport, harbiy sohadagi ma’lumotlarni qamrab oladi. Ommaviy axborot vositalari ma’lumotlarni reportaj, intervyu, matbuot konferensiyasi, suhbat va boshqa janrlar ko‘rinishida yetkazadi [11:2]. Bu ma’lumotlarni barchasi siyosiy jihatdan talqin qilinadi. Polietnik mamlakatlarda bunday ma’lumotlarni yetkazishda axborot yetkazuvchi subyektlar quyidagilarga e’tibor berishlari tavsiya etiladi:

1. Ma’lumotlarning biror milliy subyektning manfaatlariga, qadriyatlariga, an’analriga qarshi bo‘lgan fikrlardan xoli bo‘lishi;

2. Siyosiy vaziyatni tomonlarning o‘z maqsadlari yo‘lida noxolis talqin qilishdan yiroq bo‘lishi;

3. Ma’lumotlarni tarqatishda siyosiy terminlardan maqsadli foydalanishga e’tibor berish;

4. Etnomilliy muammoning fazasi past bo‘lganda iloji boricha u haqda ommaga ma’lumotni tarqatmaslikka e’tibor berish kerak. Ba’zan xabarning yo‘qligi voqeaga nisbatan e’tiborni pasayishiga olib keladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, polietnik davlatlardagi muxolif kuchlar axborot oluvchilarga yetkazilgan ma’lumotlarni negativ jihatlariga e’tibor qaratishadi va muayyan beqaror vaziyatni keltirib chiqarganlikda hokimiyat boshqaruv organlarini aybdor qilib ko‘rsatishga harakat qiladilar. Bunday holatlarni bartaraf etishga zarur vositalar yoki siyosiy kuchlarni mavjudligini o‘z timsollarida ko‘rsatishga harakat qiladilar. Masalan, Ispaniyaning Kataloniya hududi doimiy ravishda mustaqilikka intilib keladi va amaldagi Ispaniya markaziy hokimiyatining “yagona Ispaniya” tamoyilini tan olmaslikka harakat qiladi. Kataloniya matbuoti ham ko‘pincha Ispaniya markaziy hokimiyatini harakatlarini salbiy jihatlariga urg‘u bersada, amaldagi holat boshqacharoq manzara kasb etadi. Jumladan, 2017-yil 1-oktabrda Kataloniyada Ispaniydan mustaqillik masalasi bo‘yicha o‘tkazilgan referendumda ovoz berish huquqiga ega bo‘lganlarning 43 % ishtirok etishgan xolos [2:4]. 2024-yilning may oyida Kataloniya parlamentiga o‘tkazilgan saylovda saylovchilarning ko‘pchilik ovozini Ispaniyaning bo‘linishiga qarshi bo‘lgan Kataloniya sotsialistik partiyasi qo‘lga kiritdi. Bundan ko‘rinib turibdiki Kataloniyadagi OAV tomonidan berilayotgan va ko‘pchilikda “butun Kataloniya Ispaniyadan ajralishni xohlaydi”, “Ispaniya Kataloniyani iqtisodiy jihatdan talamoqda” degan qarashlar haqiqatga unchalik mos kelmaydi.

Rag‘batlantiruvchi funksiya siyosiy kommunikatsiyada aniq belgilangan jarayonni

 ISSN 2181-9572

amalga oshirishga xizmat qiladi. Masalan fuqarolarni muayyan siyosiy partiyani saylovlarda qo‘llab-quvvatlashga da’vat etiladi. Siyosiy jarayonlar keskinlashganda esa siyosatchilar ommani mitinglar va namoyishlarga da’vat etadilar. Inqilobiy vaziyatlar yuzaga kelganda ommani o‘zlarining siyosiy maqsadlarini qo‘lda qurol bilan himoya qilishga da’vat etishadi. Siyosiy kommunikatsiyaning rag‘batlantiruvchi funksiyasi bilvosita usullar bilan ham yuzaga chiqishi mumkin. Siyosatchilar bunda ommaga doimiy chaqiriqlar bilan murojaat qilib amaldagi siyosiy sistemani almashtirishga chaqiradilar. Ular mavjud hokimiyatning “naqadar chirigan” ligini ko‘rsatishga intiladilar [7:65]. Shundan keyin, siyosiy vaziyat keskinlashganda omma miting va namoyishlarda faol qatnasha boshlaydi, zarur bo‘lsa o‘zining siyosiy ideallarini himoya qilish uchun qo‘liga qurol ham oladi. Siyosiy kommunikatsiyaning bunday funksiyasi polietnik davlatlarda muayyan xavfli jihatlarga ham ega. Masalan, Serbiya tarkibidan ajralib chiqqan Kosovoning shimoliy hududlari asosan serblar kompakt holda yashaydigan 3 ta munitsipalitetdan iborat. 2023-yilning may oyida mahalliy munitsipalitetlarga o‘tkazilgan saylovlarda serblar Kosovodagi alban hukmron doiralarining saylovlarini boykot qilishga chaqirishgan. Albatta serblar u saylovlarni boykot etishlariga qaramay ozchilik albanlarni ovozini olgan alban yetakchilar serblar yashaydigan bu munitsipalitetlar rahbarligini qo‘lga kiritishdi. Kosovoni o‘zining tarkibida deb tasavvur qiladigan Serbiya bu harakatni “shimoliy Kosovoni okkupatsiyasini boshlanishi”, deya baholadi [8:2]. Serbiya hukmron doiralarining bunday bahosi siyosiy vaziyatni hududda yanada keskinlashuviga olib keldi.

Shuni ta’kidlash joizki, polietnik mamlakatlarda milliy va etnik birliklarning ijtimoiy yoki iqtisodiy hayotidagi yuzaga keladigan muammolarni xarakteriga hama vaqt siyosiy baho beriladi va bu muammoning yechimiga ommani miting va namoyishlarga da’vat etish, aynan shunday jarayonlarda markaziy hokimiyatga qarshi negativ kayfiyat shakllantiriladi. Ko‘pincha bunday kayfiyat qurolli to‘qnashuv darajasiga borib yetadi. Bunday keskinlik yuzaga kelgandan so‘ng milliy ozchilik va titul millatlar orasida ziddiyatlar chuqurlashib, qabul qilinadigan qarorlar ko‘pincha irratsional ko‘rinishga ega bo‘ladi. Polietnik mamlakatlarda siyosiy kommunikatsiyaning rag‘batlantiruvchi funksiyasi bilvosita yo‘llar bilan ham amalga oshishi mumkin. Siyosiy hokimiyatni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zgartirishga da’vat etilmasa ham ko‘pmillatli davlatni boshqarayotgan hokimiyatni layoqatsiz, boshqa millatlar va etnik birliklarga nisbatan shafqatsiz qilib ko‘rsatishga intilish orqali siyosiy elitani mavqeiga putur yetkazish mumkin.

Siyosiy kommunikatsiyaning hissiy funksiyasi axborot tarqatuvchining his-tuyg‘ularini ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi va axborotni oluvchining his-tuyg‘ularini junbushga keltirishga qaratilgan bo‘ladi. Ma’lumki emotsiyalar shaxsda davlatga nisbatan umid, ishonch, g‘urur, muhabbat paydo qiladi. Etnik va milliy ziddiyatlar xavfi mavjud mamlakatlarda siyosiy kommunikatsiyaning hissiy funksiyasidan negativ maqsadda foydalanilsa ular ziddiyatlarni yangi fazaga olib chiqishi mumkin [7:65].

Tarixda ko‘plab milliy va etnik ziddiyatlarning keskin tus olishi aynan axborotni yetkazishda siyosiy kommunikatsiyaning hissiy funksiyasi orqali amalga oshirilgan. Jumladan, mamlakatning makroiqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatining barqarorligi bilan bog‘liq axborot ommaning ongida tashvish yoki ishonchni uyg‘otishi mumkin. Masalan, Belgiya davlati ham etnik muammo u yoki bu fazada doimiy tusga ega mamlakat hisoblanadi. Mamlakatni Flandriya va Valloniyaga bo‘lib ketish ehtimolini ko‘pchilik siyosatchilar bashorat qilishadi. Belgiyaning iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi ma’lumotlar Flandriya aholisi orasida yagona davlatdan bo‘linish kerakligi haqidagi tasavvurini oshiradi. Flandriyaliklarning mamlakat budjetidagi ulushi va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar Valloniyaga qaraganda 25% ga ziyodni tashkil etadi. Siyosiy kommunikatsiya Flandriyada ko‘pincha valloniyaliklarning ijtimoiy holatini yaxshilashga sarflanadigan

mablag‘lar Flandriya hisobidan ketadi, degan emotsional fonni yuzaga keltiradi. Bu vaziyatda flandriyaliklarning ko‘pchiligi Belgiya markaziy hukumatining iqtisodiy siyosatidan norozilikning yechimi sifatida markaziy hokimiyatdan ajralib chiqish masalasiga e’tibor bera boshlaydilar [9:2]. Polietnik mamlakatlarda siyosiy hokimiyat tomonidan siyosiy kommunikatsiyaning hissiy funksiyasidan unumli foydalanishga kirishilsa siyosiy opponentlarning harakatlarida qo‘rquv, noaniqlik yuzaga kelib faoliyati izdan chiqadi. Milliy va etnik ziddiyatlarning aksariyatida axborot tarqatuvchilar millat yoki etnik birliklarning yaqin o‘tmishdagi tarixi haqida fikr yuritishib ma’lumot oluvchilar tasavvurida zaruriy emotsional fonni yaratib olishgandan keyin ularni o‘zlariga kerakli xatti-harakatlarni sodir etishga undaydilar.

Siyosiy kommunikatsiyaning metalingvistik funksiyasi axborot oluvchilarga siyosiy termin va iboralarni mazmun va mohiyatini tushuntirishga qaratilgan bo‘ladi. Ba’zan esa axborot yetkazuvchilar siyosiy terminlarni ataylab buzib qo‘llashni boshlaydilar. Chunki zamonaviy siyosiy kommunikatsiya murakkab, o‘ziga xos tushunishi qiyin so‘z va iboralardan iborat bo‘ladi [7:65]. Siyosiy voqealar jarayonini ifodalashda qo‘llaniladigan iboralarning ta’sir kuchi sezilarli ravishda e’tiborni tortadi.

2017-yilning 27 sentabrida Iroq shimolidagi kurdlar o‘z hududlarini mustaqilligi to‘g‘risidagi referendumni o‘tkazishga qaror qilishgan edi. Bu siyosiy qadam Iroq hukumati bilan bir qatorda qo‘shni Eron va Turkiyaning hukmron doiralarini tashvishga soladi. Agar Iroq bosh vaziri referendumni “g‘ayrikonstitutsiyaviy”, “noqonuniy” degan so‘zlar bilan baholagan bo‘lsa, Turkiya prezidenti Erdo‘g‘on kurdlar referendumini “avantyura” degan so‘z bilan baholab, “mustaqillikni e’lon qilsangiz, ochlikka giriftor bo‘lasiz”, deya tahdid qilgan edi [3:3]. Polietnik mamlakatlarda markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshirilayotgan, yoki amalga oshirilgan u yoki bu siyosiy qarorlarga nisbatan axborot tarqatuvchilar mazkur funksiyadan zarur hollarda foydalanish orqali o‘z maqsadlariga erishishlari, axborot oluvchi obyektlar tasavvurida siyosiy jarayonlar, siyosiy liderlar hamda markaziy hokimiyat haqida noto‘g‘ri tasavvurlar paydo qila oladilar [1:298]. Axborot oluvchilarda zaruriy kayfiyat hosil qilingandan keyin ularni amaliy harakatga undash mumkin.

Siyosiy kommunikatsiyaning fatik funksiyasi axborot oluvchi va axborot yetkazuvchilar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish va saqlab turishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday vaziyatda axborot oluvchilar uchun suhbat mazmunidan ko‘ra axborot yetkazuvchi bilan emotsional yaqinlashish fakti muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot yetkazuvchilar auditoriyaga “o‘rtoqlar”, “janoblar”, “hamkasblar” kabi so‘zlar orqali murojaat qilib o‘ziga xos yaqinlikni o‘rnatib oladilar [7:66]. Axborot tarqatuvchilar tomonidan ayrim ideologemalarni foydalanilishi muallifning qarashlarida “o‘zimizniki” yoki “begonalar” degan guruhlarni ajratish maqsadi borligini sezdirib qo‘yadi. Polietnik mamlakatlarda axborotni bunday tarqatilishi turli milliy va etnik birliklar o‘rtasidagi vaziyani konflikt tomon burilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Milliy va etnik ozchilik vakillariga ba’zan axborotni tarqatishda o‘zlarining muqaddas qadamjolarini boshqa milliy guruhlar tomonidan vayron qilinganligi, yoki o‘zlarining tarixiy ildizlari haqidagi ma’lumotlar to‘g‘risida faktlar taqdim etiladi. Masalan, Latviyadagi mahalliy latishlar va aholining 30% dan ziyodini tashkil etadigan rusiyzabon aholi o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashuvida ko‘pincha sovet davri yodgorliklarini buzib tashlash, joylar nomlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq hukumat qarorlari sabab bo‘ladi. Hukumat o‘z qarorlarini izohlashda “begona” shaxslar va yodgorliklarning mavjud bo‘lishiga keskin qarshi va bu g‘oyani mahalliy millatchi kuchlar doimo qo‘llab quvvatlashadi [6:2].

Siyosiy kommunikatsiyaning estetik (poetik) funksiyasi milliy va etnik munosabatlar bilan aloqador emasdek bo‘lib ko‘zga tashlansada, tarixiy faktlar bu fikrimizni teskari jihatlarini namoyon etadi. Chunki estetik funksiya xabarning shakliga, uning ifodalanishiga e’tibor beradi. Siyosiy kommunikatsiyaning bu funksiyasi ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanilsada, siyosatchilar ham o‘z nutqlarining chiroyli va ta’sirli ifodalanishi uchun jiddiy e’tibor berishadi

 ISSN 2181-9572

[7:66]. Kataloniyaning Ispaniyadan ajralib chiqishining faol targ‘ibotchilaridan biri Jordi Pujol tomonidan ilgari surilgan “Kataloniya – Yevropaning yorqin millati”, degan tezisni ilgari surilishi poetik tarzda aytilgan fikr bo‘lsada, amalda ommaga ta’sir etish kuchining balandligi bilan ajralib turadi [2:2]. Milliy va etnik ziddiyatlarni avj olishidan manfaatldor kuchlar siyosiy maqsadga erishishning turli vositalaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Siyosiy kommuniktasiyada estetik funksiya ko‘proq kichik siyosiy janrlarda qo‘llaniladi. Bu jarayonda turli iboralar, varaqalar, shiorlar, qisqa lekin ommaga ta’sirli da’vatlar ularning asosiy quroliga aylanadi.

Siyosiy kommunikatsiya funksiyalarini siyosiy jarayonlarga mos talqin qilish orqali polietnikmamlakatlardagimilliymojarolarnioldini olishda samarali foydalanish mumkin. Buning uchun axborot tarqatuvchi har qanday manba axborotni siyosiy kommunikatsiya funksiyalariga rioya qilgan holda axborot oluvchilarga yetkazishi lozim. Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, siyosiy kommunikatsiya funksiyalaridan muxolif kuchlar, geopolitik maqsadlarni alohida o‘ringa qo‘yuvchi siyosiy guruhlar ham o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishlari mumkin. Bunday sharoitda har qanday polietnik davlatning siyosiy hukmron doiralari axborot oluvchilarga xolis ma’lumotlarni yetkazishni samarali usul va vositalarini qo‘llashlariga to‘g‘ri keladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki axborot asrida siyosiy mazmun kasb etadigan har qanday ma’lumotni yetkazishning muayyan texnologiyalari mavjud bo‘lib, ular axborot oluvchilarning voqelikka nisbatan dunyoqarashini shakllantirishi bilan bir qatorda, ularning hissiy-emotsional kayfiyatlariga ham ta’sir o‘tkazadi, kishilarni harakatga undaydi, yoki xatti-harakatlarini nazoratga oladi. Siyosiy kommunikatsiyaning funksiyalarini polietnik mamlakatlarda samarali foydalanish orqali kishilarning siyosiy tasavvur olamini boyitish, ularni siyosiy tarbiyalash orqali jamiyatdagi siyosiy barqarorlikka ham erishish mumkin. Siyosiy kommunikatsiyaning funksiyalari polietnik mamlakatlardagi etnomilliy konfliktlarning fazasini pasaytirishi, yoki aksincha uni keskinligini ham oshirishi mumkin. Hukmron doiralar o‘zlarining siyosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda siyosiy kommunikatsiya funksiyalaridan qanday holatda, qanday usul va vositalaridan foydalanishni aniqlab olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ачкасов В. А. Этнополитология. – Москва: Юрайт, 2014. – 494 б.
2. Верников В. Каталонский национализм. Современная Европа, 2020. № 4. https://cyberleninka.ru/
3. Лоуэн М. Эрдоган – курдам: провозгласите независимость – будете голодать. https://www.bbc.com/
4. Марков Е. А. Первая чеченская война. https://www.philol.msu.ru/
5. Роман Осипович Якобсон. https://www.philol.msu.ru/
6. Сатановский С. Почему в Латвии сносят памятники и меняют названия улиц? https://www.dw.com/
7. Современная политическая коммуникация. Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 2009. – 293 б.
8. Столкновения в Косово: сербы протестуют проив вступления в должность меров-албанцев. https://www.bbc.com/
9. Тимофеева Ю. Этнофедерализм в Бельгии. https://russiancouncil.ru/
10. Хубецова З.Ф. Политическая коммуникация. Теория, образования, опыт. Санкт-Петербург: Высшая школа журналистики и массовой коммуникации, 2017. – 140 б.
11. Эсенов М. Роль СМИ в освещении этнической тематики. Центральная Азия и Кавказ. Том 15, выпуск №2, 2012. https://cyberleninka.ru/